
14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni: Bayramga bag‘ishlangan sport musobaqalari

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida regbi, voleybol, kurash, minifutbol, qo‘l to‘pi, suzish sport turi bo‘yicha “Milliy Armiya-yoshlarning mardlik, matonat va jasorat maktabi” shiori ostida viloyat birinchiligi musobaqalari o‘tkazilmoqda.

6 yanvar kuni Farg‘ona davlat universiteti o‘yingohida tadbirning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda viloyat hokimi o‘rinbosari I.Nosirov viloyatimizdagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan ofitser va askarlarni – Vatan himoyachilari kuni bilan qutlab, musobaqa ishtirokchilariga omad tiladi.

Davlatimiz Madhiyasi yangradi. So‘ngra regbi musobaqasi boshlandi. Unda viloyatimizdagi harbiy qismlarning “Istiqlol”, “Jasorat”, “Burgut”, “Barkamol”, “Matonat” va viloyat yoshlar ittifoqining “Jasorat” jamoalari o‘zaro kuch sinashdi.

Qizg‘in bahslardan so‘ng SHarqiy harbiy okrugning “Jasorat” jamoasi g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarildi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni viloyat yoshlar ittifoqining “Jasorat” va “Istiqlol” jamoalari egalladi.

–Keyingi yillarda sportning regbi turi rivojlanib bormoqda. Unga qiziquvchilar soni kundan-kunga ko‘payib borayotgani ham shundan dalolat beradi, – dedi viloyat regbi federatsiyasi raisi Iqboljon Mamajonov. – Bugungi tadbir tashkilotchilari – viloyat hokimligiga, SHarqiy harbiy okrug qo‘mondonligi, viloyat jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi xodimlariga o‘z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz. Regbi sport turi yoshlarning jismonan sog‘lom, barkamol, chaqqon, hushyor va epchil bo‘lib kamolga etishida muhim omil sanaladi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdulhay Karimovning diltortar qo‘shiqlari tadbirga o‘zgacha shukuh va xushkayfiyat ulashdi.

M.SALIMOVA.

Suratlarni Sherzod QORABOEV olgan.

2018-01-10 17:17:59